

9-26-2018

THE ROLE OF EUPHEMISMS IN FORMING THE CULTURE OF THE STUDENTS' SPEECH

Shakhnoza Kakhramonovna Gulomova
Teacher at Uzbek linguistics department, Bukhara state university

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu>

Recommended Citation

Gulomova, Shakhnoza Kakhramonovna (2018) "THE ROLE OF EUPHEMISMS IN FORMING THE CULTURE OF THE STUDENTS' SPEECH," *Scientific reports of Bukhara State University*: Vol. 1 : Iss. 4 , Article 2.
Available at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol1/iss4/2>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific reports of Bukhara State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

UDK 372.881.512.133:81`373.6

O'QUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA EVFEMIZMLARNING O'RNI

РОЛЬ ЭВФЕМИЗМОВ В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ

THE ROLE OF EUPHEMISMS IN FORMING THE CULTURE OF THE STUDENTS' SPEECH

Gulomova Shakhnoza Kakhramonovna*Teacher at Uzbek linguistics department, Bukhara state university***Tayanch so'zlar:** til, nutq, madaniyat, evfemizm, disfemizm, ma'nodosh so'zlar, nutq uslublari, nutq madaniyati, o'quvchilar nutqi.**Ключевые слова:** язык, речь, культура, эвфемизм, дисфемизм, синоним, стили речи, культура речи, речь учащихся.**Key words:** language, speech, culture, euphemism, dysphemism, synonyms, speech styles, a culture of speech, students' speech.

Maqolada evfemizmlarning o'quvchilar nutq madaniyatini shakllantiruvchi vositalardan biri ekanligi haqida fikr yuritilgan. Yoshlar nutqini evfemik birliklar bilan boyitish yo'llari ko'rsatilgan.

В статье рассмотрены эвфемизмы как средство формирования культуры речи учащихся. Также показаны пути обогащения речи молодежи эвфемическими единицами.

The article maintains that euphemisms are the means of forming students' culture of speech. The ways of enriching the speech of young people with euphemistic units have also been shown.

Til xalq va millatning ko'zgusi, ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib qoluvchi ijtimoiy hodisadir. U har bir xalqning va millatning yashash tarzini, ijtimoiy munosabatlardagi o'rnini, turmushini, urf-odatlarini o'zida namoyon etadi.

Nutq madaniyati insonda yoshlikdan shakllanib borishi zarur. Til qonuniyatlaridan o'z o'rnida to'g'ri foydalana olish insondan bilim talab qiladi, albatta. Shunday ekan, o'zbek tili o'zbek xalqining ijtimoiy hayot tarzini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Nutqni ravon, izchil va grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish uchun bir qator qonuniyatlarga amal qilish zarur. So'zni to'g'ri tanlay olish, qo'shimchalardan o'z o'rnida foydalanish, sintaktik jihatdan gapni to'g'ri qurish shular jumlasidandir.

Ma'lumki, til taraqqiyoti xalq hayoti, madaniyati, turmush-tarzi bilan chambarchas bog'liqdir. Zotan, til va madaniyatning aloqadorligi asosida tilshunoslikda lingvokulturologiya degan yo'nalish rivojlandi. Nutq madaniyati tildan bemalol va maqsadga muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan imkoniyat sifatida ardoqlab kelinadi. Nutq odobi, til madaniyati kabi fazilatlar o'zbek xalqining qadimiy ma'naviy tayanch ustunlaridan sanaladi. Ma'naviy kamolotga erishishda madaniy merosimiz bo'lmish tildan o'rinli foydalanish, uni chuqur o'rganish va undan bahramand bo'lishimiz zarurdir.

Olim A.Omonturdiyev kishilar o'rtasidagi aloqa vositalari voqelikni bayon etish – uni ifodalash usuli darajasiga ko'ra bir-biri bilan uzviy bog'langan uch qatlam: til, nutq, supernutqdan tashkil topganini o'rinli ta'kidlaydi [2]. Til xabar, aloqa vositasi bo'lsa, nutq munosabat, muloqot usuli, supernutq esa evfemik, ekspressiv-emotsional muomalani ifodalaydi.

Tilshunosligimizda til madaniyatiga erishish uchun qo'llaniladigan vositalar mavjudligi e'tiborga molikdir. Ayniqsa, ochiq aytilishi no'rin, noqulay, madaniyatsizlik, axloqsizlik hisoblangan birliklarni nutqda yumshatish, madaniyroq tusga kiritishga asoslangan evfemizmlar nutq mdaniyatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, nutqimizda evfemizmlarni qo'llash madaniyatlilik, sharqona lutf qilish belgisidir. O'zbeklar nutqida evfemizmlarning ko'p qo'llanilishi xalqimizning madaniyatlilikidan, halimligidan dalolatdir.

SOCIAL AND BEHAVIORAL SCIENCES: LINGUISTICS

Evfemizmlar tilda allaqachon nomlangan tushunchalarni qayta atash uchun yaratilar ekan, ular shu tushunchalarni ifodalagan soʻzlarning sinonimlari hisoblanadi va perifrazalarning bir turidir. Evfemizmlar haqida gapirganda, shuni ham aytib oʻtish lozimki, tilimizda evfemizmlarning antonimi sifatida oʻrganiladigan birliklar ham bor. Ular disfemizmlar boʻlib, kishilar izzat-nafsiga tegadigan soʻzlarni ochiqdan-ochiq aytish, muloqot jarayonida nutq nafisligidan foydalanmaslikdir.

«Yaxshi gapirmoq», «silliq soʻzlamoq» maʼnolarini beruvchi **evfemiz** atamasi muloqot jarayonida soʻzlovchining nutqini qoʻpol soʻzlarni qoʻllashdan yoki tinglovchining «koʻngliga tegishi mumkin» boʻlgan noqulay soʻzlarni ishlatishdan saqlash bilan bogʻliq, ammo bu evfemizmlar qoʻpol, noqulay maʼnoni beruvchi soʻz ifodalagan mantiqni bermaydi degani emas. Zero, evfemizmlar ifodaga ijobiy yondashuv orqali yuzaga keladi.

Darhaqiqat, evfemizmlar nutq madaniyatini oshirish manbalaridan, koʻrkam va jozibador nutq shakllantirish vositalaridan biridir.

Oʻquvchilar nutqini rivojlantirish, soʻz boyligini oshirish hamda madaniyat bilan soʻzlashni chuqurroq oʻrgatishni davrning oʻzi taqozo qilmoqda. Shuni alohida taʼkidlash kerakki, yoshlar nutq madaniyatini shakllantirishda evfemizmlarning oʻrni alohidadir. Buning uchun oʻqituvchi dars jarayonlarida har bir mavzuga bogʻlagan holda turli metodlar orqali ularning lisonida evfemizmlarni shakllantirib borishi zarur. Masalan, 5-sinfda “Maʼnodosh soʻzlar”, 6-sinfda “Feʼl soʻz turkumi” mavzularini oʻtayotganda quyidagi soʻzlarni yozuv taxtasi(doska)ga yozib, uning sinonimlarini (ibora, tasviriy ifoda bilan ham) yozishni topshirish mumkin:

Oʻlmoq – *halok boʻlmoq, jon fido qilmoq, mangu uyquda yotmoq, qurbon boʻlmoq, oʻtgan ajdodlar, oʻtgan buyuk allomalar, shahid ketmoq, nobud boʻlmoq, uxlamog*

Oʻzbek tilida “oʻlmoq” soʻzi bilan bogʻliq boʻlgan evfemiz lugʻat A.Omonturdiyevning “Oʻzbek tilining qisqacha evfemiz lugʻati”da berilgan boʻlib, ulardan ham namunalar keltirib, oʻquvchilar-ning soʻz boyligini oshirish mumkin. Bunda “Insert” metodidan foydalanish maqsadga muvofiq.

V	-	+	?
(bu men bilgan soʻzga mos)	(bu men bilganlarimga zid)	(bu men uchun yangi maʼlumot)	(men uchun bu soʻzlar tushunarsiz)
<i>Abadiylikka bosh qoʻymoq, abadiy uyquga ketmoq, ayrilib qolmoq, hayot bilan vidolashmoq, hayotiga nuqta qoʻymoq, joniga qasd qilmoq, kamaymoq</i>	<i>baxti qaro kiymoq</i>	<i>bandachilik qilmoq, elchisi kel-moq, foniq dunyodan ketmoq, fano olamini tark etmoq, gul uz-moq, musulmonchilik qilmoq</i>	<i>dorulfanodan dorulbaqogʻa rihlat qilmoq, indamaslar olamiga ketmoq, paymona toʻlmoq</i>

Oʻquvchilar (-) va (?) maqomidagi evfemizmlar maʼnosini izohlashga harakat qilishadi, mustaqil fikr yuritishadi. Kemtik joylarini oʻqituvchi toʻldiradi. Bu orqali esa oʻquvchilar lisoni yangi soʻzlar, iboralar bilan boyiydi.

Yoki soʻz topish oʻyini orqali evfemizmlardan foydalanishni taʼminlash mumkin. Bunda oʻquvchilarni 2 guruhga boʻlish kerak. Oʻqituvchi soʻzni doskaga yozadi, guruhlar esa uning yumshoq ifodalangan variantlarini aytishi lozim boʻladi. Toʻxtab qolgan guruh magʻlub hisoblanadi.

Kasal (boʻlmoq)

<i>I guruh</i>	<i>II guruh</i>
<i>boshi yostiqaq tegmoq</i>	<i>Betob</i>
<i>Bemor</i>	<i>mazasi yoʻq</i>
<i>mazasi qochmoq</i>	<i>dard tortmoq</i>
<i>ogʻrib qolmoq</i>	<i>sogʻligi yomon</i>
<i>Xasta</i>	<i>tobi yoʻq</i>
<i>Shamollamoq</i>	<i>sogʻligi yaxshi emas...</i>

Oʻquvchilar yozib boʻlgandan soʻng oʻqituvchi xatolarni tuzatib, toʻldirishi kerak.

SOCIAL AND BEHAVIORAL SCIENCES: LINGUISTICS

6-sinfda Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asarini o'tish davomida o'quvchilarga *yengilish, yiqilish* so'zlarining sinonimi sifatida ishlatilgan birliklarni topib, adabiyot daftarlariga qayd etib qo'yishni topshirish va eng ko'p topa olgan o'quvchi baholanishini aytib, rag'batlantirish mumkin. Ular asarni o'qish davomida quyidagilarni topishga muvaffaq bo'ladilar: *yag'rini yer ko'r-moq, yelkasi yerga tegmoq, orqasi yerga tegmoq, kuragini yer o'pmoq, yulduz sanamoq* va h.k.

10-sinfda nutq uslublarini o'tganda ham evfemizlarning nutqiy uslublarda xoslanishi nuqtayi nazaridan tasnif etish, o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Evfemizlar birinchi galda badiiy uslub uchun xizmat qiladi. U badiiy uslubning oliy formasi. Nutqni ta'sirchan ifoda etishning asosiy vositalaridan biridir.

Evfemik va disfemik ma'noli birliklar, asosan, nutqiy hodisa bo'lganligi sababli, adiblar nutqida individual hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun so'z san'atkorlarining asarlarida qo'llangan bunday til hodisalarini individual nutq tarkibiy qismi sifatida maxsus tadqiq qilish alohida ahamiyatga ega. X. Qodirova Abdulla Qodiriy asarlaridagi evfemik va disfemik vositalarning lingvistik xususiyatlari hamda adibning ulardan foydalanish mahoratini tavsiflab bergan. Abdulla Qodiriy evfemik ma'noli birliklarni qo'llash masalasida ulkan mahorat egasi sifatida ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Adibning o'z va uning qahramonlari tilida uchragan har bir so'z va gapda ularning ruhiy-ma'naviy kayfiyati, orzu-niyati, insonga, uning hayotiga, tabiat hodisalariga munosabati, dunyoqarashi va madaniy saviyasi, his-tuyg'u va xulq-atvori aks etib turadi. Buyuk adibning "O'tgan kunlar" romanida evfemizlarning yuksak mahorat bilan qo'llanilganligini yaqqol ko'rish mumkin. X. Qodirova Abdulla Qodiriy asarlarida qo'llangan evfemizlar, miqdor jihatidan rang-barang bo'lish bilan birga, mavzuviy jihatdan ham xilma-xil ekanligini ta'kidlaydi: 1) shaxsni anglatuvchi evfemik vositalar: *valine'mat jannatmakon, "katta", zinokor, halol emas, suyuq oyoq, "aynigan" majnun, layli, baba, barishnaxon, marja, o'ynash, tutash, "noz egasi", "fir'avn qizi"*; 2) inson tana a'zolarini ifodalovchi evfemik ifodalar; 3) biomoddani anglatuvchi evfemik ifodalar: *axlat, tezak, xilt*; 4) insonning jismoniy nuqsonlarini anglatuvchi evfemik ifodalar: *qulog'i og'ir, bir ko'zi mag'ribda, bir ko'zi mashriqda*; 5) insonning jismoniy holatini anglatuvchi evfemik ifodalar: *yuklik, homilalik, og'ir oyoq, ikkiqat, tumsa, pushtsiz, bezurriyot, "qizil kuyov"*; 6) insonning ma'naviy nuqsonlarini anglatuvchi evfemik ifodalar: *aqling oqsaydir, aqlingiz bir oz yanglishibdir, boshi bo'sh, jo'n odam, po'stak aqlini moy bosgan, jahli basit, soddalavh, esi yarim, yarim madaniy xalq, xom kishi*; 7) insonning muomala va munosabatdagi nuqsonlarini anglatuvchi evfemik ifodalar: *yelkasi qichimasin (ta'magirik qilmasin), yovvoyi chiqim (pora), mullajiring (pul; pora), "qarz" (pora), cho'ntakparast (ta'magir, pulga o'ch odam), konvert orqali ulashilgan "badal"lar (pul, pora)*; 8) spirtli ichimliklarni anglatuvchi evfemik ifodalar: *dori, zahar, "obi surx", obirahmat, oqsoqol* [3]. Adib asarlaridagi evfemizlar borasida adabiyot darslarida ham fikr yuritish o'rinli. Masalan, 5-sinfda "Uloqda" hikoyasini, 7-sinfda "Mehrobdan chayon" romanini, 9-10-sinfda "O'tkan kunlar" romanini o'qib, tahlil qilganda asarlarda qo'llangan evfemik birliklarni topib, izohlash hamda ularni nutq jarayonida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki badiiy asar o'qishdan maqsad faqat voqealar atrofida aylanish emas, balki so'z boyligini oshirish, so'zni o'rinli qo'llashni o'rganish va okkazional so'zlarni tushunish hamda eng asosiysi ulardan amalda foydalana olishdir.

Biroq, evfemik vositalarning qo'llanish doirasini badiiy adabiyot bilan chegaralash xatodir. Chunki u publitsistik uslubning ham komponenti bo'lib, uning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Publitsistik uslub evfemizlarini izohlash uchun matbuot materiallariga murojaat etamiz:

koyib bermoq - urushmoq

Ayrim rollar yoqib qolsa, menga bering, desam, bu rol sizga tushmaydi, deb turmush o'rtog'im ochiqchasiga aytardilar, qaysarlik qilsam, koyib berardilar. ("Saodat", 2009, № 6.)

lafzi harom- so'zida, ahdida turmaydigan, subutsiz

Ming afsuski, oramizda lafzi harom kimsalar ham uchrab turadi. ("Buxoronoma", 2009, 2-fevral)

mahrum – erksiz; mazlum - bechora

Agar sendan qanday holatlarda gapirish ma'qul deb so'rasalar, shunday javob ber: «Dilda pinhon bo'lgan narsalarni izhor qilish uchun **mazlumlarga** yordam qo'lini cho'zish va **mahrumlarning** dodu faryodiga yetish paytida ("Ma'rifat", 2013, 12-yanvar)

nafsga erk berish – badnafslilik, ochko'zlik

Ogohlik, ziyraklik har doim va har qachon bizning eng sodiq qo'riqchilarimiz ekanini, mehnatsiz keladigan boylik insonga vafo qilmasligini, **nafsga erk berish** birinchi g'ananimiz ekanini yodingizga solib qo'ymoqchiman, xolos. ("Ma'rifat", 2012, 22-avgust)

Evfemik vositalar so'zlashuv uslubi tarkibida ham faol qo'llaniladi. So'zlashuv nutqi nutq momentidagina mavjudligi, so'z tanlash va so'z qo'llashning yozma nutqqa nisbatan erkinligi, so'z iqtisod qilish qonuniyatining amal qilish jarayonlari evfemadan osonlik bilan foydalanish imkoniyatini beradi [4], shu sabab so'zlovchi ko'pincha "**o'lmoq**" o'rnida "**bo'lmabdi**", "**turmadi**", "**o'tmoq**", "**ketib qolmoq**", "**yo'qolmoq**" kabi aytilishi o'ng'ay evfemalarni qo'llaydi.

Xulosa qilib aytganda, evfemizmlar badiiy, publitsistik hamda so'zlashuv uslublarda faol qo'llanadi. Demak, evfemizmlar – nutq ko'rki. Ona tili darolarida qaysi sinfda qanday mavzu o'tilishidan qat'i nazar evfemizmlarni o'z o'rnida ishlatishni o'rgatish, nutqni ravon ifoda etishni ta'minlash har bir o'qituvchi oldidagi asosiy vazifadir. Zero, ona tili darolarini o'tishdan asosiy maqsad quruq qoidalarni yodlatishdan iborat emas, balki o'sha nazariyalarni amalda – nutqda tadbiiq eta olishdir.

REFERENCES

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. - B.126.
2. Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi. - T.: Fan, 2006. - 252 b.
3. Qodirova X.B. Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmdan foydalanish mahorati. Avtoref.fil.fan.nomzodi. - Toshkent, 2012. - 12 b.
4. O'rinboev B. O'zbek tilining so'zlashuv nutqi masalalari. - T.: Fan, 1975. - 176 b.